

8.2. Tomonlar mazkur shartnomani Tomonlarning kelishuviga ko‘ra Shartnomada va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan hollarda muddatidan oldin bekor qilish huquqiga ega. Shartnomaning bekor qilinishini boshlab beruvchi Tomon taxmin qilingan bekor qilish sanasidan 15 (o‘n besh) kalendar kun oldin o‘zining qarori to‘g‘risida xabardor qiladi. Tomonlarning barcha o‘zaro hisob-kitoblari amalga oshirilganidan keyin shartnomaga bekor qilingan hisoblanadi.

9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Mazkur Shartnomaga va unga bog‘liq holda Tomonlar tarafidan yaratilgan barcha hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida»gi Qonun talablariga muvofiq yuridik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi va elektron shaklda bajarilganligiga asoslanib nizolashilishi mumkin emas.

9.2. O‘zgartirishlar va qo‘srimchalar qo‘srimcha kelishuv tuzish yo‘li orqali Shartnomaga kiritiladi. Mazkur Shartnomaning barcha ilovalari va qo‘srimcha kelishuvlari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

9.3. Shartnomaga shartlarida ko‘zda tutilmagan hollarda Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladilar.